



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI ISTIQBOLLARI VA XAVF-XATARLAR

**YOQUBJONOV ABDULAZIZ
ABDUVAHOB O'G'LI**

Stars International University

Buxgalteriya hisobi va audit 21-B

guruh talabasi

abdulazizronaldo77@gmail.com

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp332-334>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda bo'lib o'tayotgan iqtisodiy islohotlar, o'zgarishlar, iqtisodiyotning istiqbollari va xavf-xatarlar, pul oqimlari, mamlakat inflyatsiya ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlar berilgan. Mamlakat iqtisodiyotining yanada rivojlanishi uchun yana qanday chora-tadbirlar qilinishi kerakligi to'g'risida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyotning istiqbollari, inflyatsiya, modernizatsiya qilish, aholi turmush darajasini yaxshilash.

KIRISH

O'zbekiston tizimli islohotlarini boshqa mamlakatlardan ko'ra kechroq boshlagan bo'lsa-da, o'tish davri iqtisodiyotiga ega boshqa mamlakatlar tajribasidan muhim saboqlarni olishi mumkin, deb hisoblaydi Jahon banki mutaxassislari. Rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam beruvchi yirik xalqaro moliya tashkiloti yaqinda O'zbekiston iqtisodiyotiga bag'ishlangan yangi hisobotini taqdim etdi. Unda o'tgan 2018-yil va joriy 2019-yilning birinchi yarmida mamlakatda yuz bergan makroiqtisodiy, ijtimoiy va tarkibiy o'zgarishlar hamda yaqin 2 yil - 2021-yilgacha bo'lgan istiqbollar keng sharhlanadi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston iqtisodiyotining o'sish sur'ati sekin, ammo ijobiy bo'lib qolmoqda. Islohotlar ishlab chiqarishdagi cheklovchi omillarni (to'siqlarni) bartaraf etish va yuqori o'sish potensialiga ega tarmoqlarni liberallashtirishga yordam beradi. 2019-2020-yillarda narx-navoning liberallashuvi va oylik ish haqi oshirilishi sababli inflyatsiya yuqori darajada saqlanib qoladi. Biroq 2021-yilga borib, u pasayishi kutilmoqda. Jahon banki prognozlariga ko'ra, tashqi savdo balansining salbiy saldosi yuqoriligidan qoladi. Sababi, O'zbekiston iqtisodiyoti kelgusi bir necha yilda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun ko'plab mashina va uskunalarni import qilishni davom ettiradi.

Shuning uchun mamlakatning o'zida kerakli korxonalarni ko'paytirish lozim. Ko'plab mahsulotlarni import qilish natijasida yoki monopol korxonadan xarid amalga oshirilmoqda. Natijada, aholi bundan aziyat chekmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.03.2020-yildagi PF-5975-son "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan, "Kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha yaxlit tizim va muvofiqlashtiruvchi davlat organi, me'yoriy-huquqiy baza, mezonlar va baholash uslubiyotining mavjud emasligi, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlikka jalb qilish vazifalarining aniq ajratib olinmaganligi sababli tegishli aholi guruhlari bilan amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi past darajada qolmoqda", deya ta'kidlanmoqda.

Kreditlarning haddan tashqari o'sishi barqarorlikka tahdid solishi mumkin. Jahon banki jamoasi fikriga ko'ra, kreditlarning davomli va haddan tashqari o'sishi inflyatsiya bosimini kuchaytiradi va bu makroiqtisodiy barqarorlik uchun asosiy xavflardan biridir. Ekspertlarning fikriga ko'ra, mamlakat hukumati moliyaviy intizomni saqlash uchun maqsadli kreditlar hajmini kamaytiradi. Bundan tashqari, barqaror iqtisodiy o'sish va pul o'tkazmalari oqimi mamlakatda asta-sekin qashshoqlikni qisqartirishga yordam berishi ham kutilmoqda. Davlatning ijtimoiy siyosatdagi o'zgarishlari kam daromadli oilalarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini yanada kengaytirish orqali qashshoqlikni kamaytirishi mumkin.

Bank ekspertlarining fikricha, ayrim tovarlar narxining jahon bozorida ko'tarilishi va olib borilayotgan islohotlar tufayli O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalar ko'payishi uchun qulay istiqbollar mavjud, biroq salbiy omillar xavfi ham saqlanib qolmoqda. O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari Rossiya, Xitoy va Qozog'istonda iqtisodiy o'sishning ancha zaifligi, tarkibiy va tizimli islohotlarni amalga oshirishning kechikishi, inflyatsiyaning o'sishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning yetarli darajadagi valyuta zaxiralariga egaligi va davlat tashqi qarzining nisbatan kamligi sabab iqtisodiyotning tashqi barqarorlik xavfi o'rtacha bo'ladi. Islohotlarning keyingi bosqichi mamlakat korxonalari va moliya sektori, qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlarni xususiyalashtirish va qishloq xo'jaligidagi islohotlar kabi ancha murakkab muammolarni hal qilishga qaratilgan. Ushbu islohotlar iqtisodiy o'zgarishlar, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va ish o'rinlarini yaratish uchun muhim ahamiyat ega. Shu bilan birga, ular puxta nazorat qilinishi kerak bo'lgan muhim iqtisodiy va ijtimoiy xavflarni ham qamrab oladi.

O'zbekiston Prezidenti devonining bayonotida sanoat ishlab chiqarishi 9,5 foizga, xizmat ko'rsatish sohasi 20 foizga, qurilish sektori 6 foizga va qishloq xo'jaligi sektori 4 foizga o'sganligi, yillik inflyatsiya 10 foizdan past bo'lganligi qayd etildi. 2022-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti 7% ga o'sishi kutilmoqda. Bundan tashqari, 2022 yilda inflyatsiya darajasi 9 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda. Ma'lumot o'rnida, o'tgan 2020 yilda inflyatsiya darajasi 11,1 foizni, 2019 yilda esa 15,2 foizni tashkil etgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanish uchun ancha kech qadam qo'ygan bo'lishiga qaramay, ko'plab islohotlar bo'layotganligi tufayli mamlakatda rivojlanish tezlashmoqda. Lekin bunday vaziyatda ehtiyotkorlik ham zarar qilmaydi, sababi, arziyas ko'ringan xato ko'plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, aholining turmush darajasini yaxshilash maqsadida, monopol korxonalar-ga raqobatbardosh korxonalarni tashkil qilish bozorda narxlarning arzonlashishiga sabab bo'lar edi va, albatta, monopol korxonaning yanada yaxshi, sifatli mahsulot-lar ishlab chiqarishiga sabab bo'lar edi. Hozirda monopol korxonalar o'zi xohlagan mahsulotini xohlagan narxiga sotishmoqda. Aholi esa o'z ehtiyojlari tufayli sotib olishga majbur bo'lishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti istiqbollari va xavf-xatarlar" <https://kun.uz/uz/news/2019/08/31/ozbekiston-iqtisodiyoti-istiqbollar-va-xavflar>.
2. "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat si-yosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida" 26.03.2020-yildagi PF-5975-son Farmoni.
- "2022-yilda o'zbekistonliklarni necha foiz inflyatsiya kutib turibdi?" <https://qalampir.uz/uz/news/2022-yilda-uzbekistonliklarni-necha-foiz-inflyatsiya-ku-tib-turibdi-49749>.